

Turkiya va Hindistonga sayohatlar uchun vaqtinchalik cheklovlar o'rnatilmoqda

2021 11 May

Respublika maxsus komissiyasining koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha qaroriga muvofiq, joriy yilning 10-maydan boshlab ushbu mamlakatlarda epidemiologik vaziyat barqarorlashgunga qadar Turkiya va Hindistonga sayohatlar uchun cheklovlar joriy etildi. Bu haqda Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati [xabar berdi](#).

Bunday cheklov chora-tadbirlari ushbu mamlakatlarda COVID-19 tarqalishi bilan bog'liq vaziyatning keskin yomonlashishini hisobga olgan holda va tegishli idoralarning takliflari asosida cheklovlar joriy qilindi.

Respublika maxsus komissiyasi koronavirus COVID-19ga qarshi kurashish bo'yicha qaroriga muvofiq, «Uzbekistan Airways» AJ tomonidan Istanbul va Dehliga amalga oshirilayotga quyidagi qatnovlar bekor qilinadi:

- 2021-yilning 26 va 31-may kunlaridagi HY 271/272-sonli Toshkent - Istambul / Istambul - Toshkent qatnovlari;
- 2021-yilning 17-maydan 31-mayga qadar haftaning faqat 2, 4 va 5 kunlaridagi HY 273/274 Toshkent - Istambul / Istambul - Toshkent qatnovlari;
- 2021-yilning 17-maydan 31-maygacha bo'lgan kunlaridagi HY 275/276-sonli Samarqand - Istambul / Istambul - Samarqand qatnovlari;
- 2021-yilning faqat 26 va 31-maydagi HY 271/272-sonli Toshkent - Istambul / Istambul - Toshkent qatnovlari;
- 2021-yilning 18-maydan 31-mayga qadar haftaning faqat 2, 4 va 5 kunlaridagi HY 273/274 Toshkent - Istambul / Istambul - Toshkent qatnovlari;
- 2021-yilning 17-maydan 31-maygacha bo'lgan kunlaridagi HY 275/276-sonli Samarqand - Istambul / Istambul - Samarqand qatnovlari;
- 2021-yilning 19-maydan 31-maygacha bo'lgan kunlaridagi HY 277/278-sonli Farg'ona - Istambul / Istambul - Farg'ona qatnovlari;
- 2021-yilning faqat 23 va 30-may kunlaridagi HY 279/280 Urganch - Istambul / Istambul - Urganch qatnovlari;

- 2021-yilning faqat 14, 21va 28-may kunlari HY 421/422 Toshkent - Dehli / Dehli - Toshkent qatnovlari;

Joriy yilning 10 may kunidan boshlab Turkiya va Hindiston hududiga O'zbekistondan borgan quyidagi yo'lovchlar kirishlari mumkin:

- Xizmat safari doirasida ushbu davlatlarga tashrif buyurayotgan fuqarolar va fuqaroligi yuq shaxslar;
- Chet elda ta'lim olayotgan talabalar;
- Diplomatlar va ularning oila a'zolari;
- Faoliyatini chet elda olib borayotgan fuqarolar va fuqaroligi yuq shaxslar;
- Investitsiya loyihalari doirasida O'zbekistonga olib kelingan mutaxassislar;
- Tranzit va transfer yo'lovchilari;
- Davolanish (kerakli hujjatlar taqdim etilgandagina) maqsadida borgan fuqarolar va fuqaroligi yuq shaxslar.

Xizmat sayohatlari uchun aviachiptalar faqat maxsus komissiyaning ruxsati bilan, boshqa toifadagi fuqarolar uchun esa ular shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida sotiladi. Hujjatlar aeroport hodimlari tomonidan ro'yxatdan o'tish jarayonida tekshirilishi zarur.

Epidemiologik vaziyat sabab vujudga kelgan noqulayliklar uchun uzr so'raymiz.